

## MUSIQA VA MA'NAVIY TARBIYA UYG'UNLIGI

*Abdumalikova Rayxona Dilshod qizi*

*Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti Musiqa ta'limi San'atshunoslik fakulteti*

*2–kurs talabasi*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada Musiqa- estetik tarbiyaning eng asosiy qismlardan bo'lib u bolalarni musiqaga bo'lgan qiziqishini musiqa san'atiga bo'lgan muhabbatini o'zida namoyon qiladi. Insonga estetik zavqni bag'ishlaydi, fikrlashini, ma'naviyatini oshiradi. Musiqa odamning ichki xisssiyotlarini o'zida aks ettirib beruvchi vosita hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** san'at turlari, musiqaviy idrok, musiqaviy eshitish qobiliyati, musiqaviy ritmik harakatlar, musiqaviy rivojlanish.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье Музыка является одной из важнейших частей эстетического воспитания, она показывает интерес детей к музыке и их любовь к музыкальному искусству. Оно доставляет человеку эстетическое удовольствие, повышает его мышление и духовность. Музыка – это инструмент, отражающий внутренние переживания человека.

**Ключевые слова:** виды искусства, музыкальное восприятие, музыкальный слух, музыкально-ритмические движения, музыкальное развитие.

**ANNOTATION.** In this article, Music is one of the most important parts of aesthetic education, it shows children's interest in music and their love for the art of music. It gives a person aesthetic pleasure, increases his thinking and spirituality. Music is a tool that reflects the inner feelings of a person.

**Key words:** art forms, musical perception, musical hearing ability, musical rhythmic movements, musical development

**KIRISH** Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida “musiqa san’at navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topdirishda boshqa san’at turlariga ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda”. Demak, musiqa san’ati va ta’lim tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlari rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, insonning ichki olamini boyitadigan, oymon-e’tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch-ma’naviyatining yuksalishini ta’minlaydi. Musiqa yordamoda uning badiiy idroki o‘sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o‘stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turip, har tomonlama jismonan boy, ma’naviy va qat’iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo‘lmaydi. Musiqa san’ati ma’naviy tarbiya omili sifatida ijtimoiy hayotda har bir insonni komillik sari yetaklaydi. Bu ta’sir kuchi kiyimda yoki aksessuarlarda emas, fikrlash va tasavvur qilishda aks etadi. Har birimiz ichimizdagi chiroyli narsalarni, atrof- muhitni, hayotni yaratishni astoydil xohlaydigan yaratuvchi bor, va bu niyatlarimiz aynan bizga ma’qul musiqa sababli jumbushga keladi. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev bugungi musiqiy madaniyatimiz rivoji va ununh jamiyat hayotidagi o‘rni masalasini ko‘p bor tahlil qilib, bundan keyingi vazifalarni belgilab olish haqida o‘z nutqlarida bir necha bor takidlab o‘tganlar. “Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi.” Bu haqiqatni inkor etib albatta bo‘lmaydi. Binobarin, bolada namoyon bo‘ladigan ilmiy badiiy- estetik tarbiya muhim ma’naviy go‘zallikka puxta zamin hozirlaydi. Bolalar yoshlik hususiyatlarini e’tiborga olib uni ilk yoshidan tashkil qilish va yo‘naltirish- pedagog vazifasidir. Aks holda bola rivojlanishida orqada qolishi seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo‘yicha ajratib borishga o‘rgatilmasa u yeti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Musiqaviy rivojlanishning muhim hususiyatlari quyidagilar;

-eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati:  
-har xil haarakatdagi emotsional munosabatning sifati vadarajasi.

Qo'shiq kuylashda musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko'nikmalar hosil qilish. Xorijiy mamlakatlarda musiqiy ta'lim-tarbiya tizimi har bir mamlakatning musiga tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning itimoiy tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiga tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu millatning musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiga tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Shu-ningdek, AQShda yagona davlat dasturi yo'q. Musiga pedagogikasi "estetika" fani sifatida o'tiladi. O'qituvchilar o'zlari xoblaganlaricha darslarni tashkillashtiradilar.

Prezidentimizning vatanparvarlik, ma'naviyat, ma'rifat, musiqaning ta'sirchan tarbiyaviy kuchiga qarata aytgan ayrim hikmatli so'zlariga e'tibor beraylik: "Eng go'zal va dilbar qo'shiqlar ham Vatan haqidagi qo'shiqlardir. Bunday jozibador qo'shiqlar el-elatlarni birlashtiradi, ularni tinch-totuv va osoyishta yashashga, Vatanni har jihatdan yuksaltirishga, ko'z qorachig'iday asrab-avaylashga va ko'ksini qalqon qilib himoya qilishga da'vat etadi". "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga kata e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mavkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi". "Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad-yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat". "Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatsiz yashay olmaydi". "Ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, ahloqi, hayotining ma'nosi qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Vatan xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir".

"Ma'naviyat- insonning xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qanday baxt-saodat bo'lmaydi".

“Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu-ma’naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg‘onish g‘oyasi haqida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetqazishdir”.

Xalqimizning yuksak ma’naviyati har birimizning Vatan oldidagi mas’uliyatimiz alohida ahamiyatga molik. Har birimiz o‘zimizning mustaqil fikrlarimizga, e’tiqodimizga, xayotiy-milliy qadriyat va dunyoqarashimizga va nihoyat mustahkam irodamizga ega bo‘lmasak, oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz amri mahol bo‘lishi hech gap emas.

Mustaqillikka erishgan kunlarimizdanoq, birinchi Prezidentimiz I.Karimov ma’naviy rivojlanish va uning jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor berib kelmoqda: “Agar iqtisodiy o‘shish, taraqqiyot-jamiyatimizning tanasi bo‘lsa, ma’naviyat- ma’rifat va siyosiy ong yetukligi unung ruxi, aqli, jonidir”.

Jamiyat taraqqiyoti iqtisodiyot bilan ma’naviyatning bir-biri bilan bog‘langan, biri ikkinchisiz voqe bo‘lmaydigan jarayondir.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda o‘zbek musiqasi pedagogikasida talabalarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish muammosini hal etish o‘ziga xos yangicha yondashuv bo‘lsa-da, musiqa san’ati insonni kamolotga yetkazishda muhim omil ekanligi haqida qadimdan ijobiy fikrlar bildirilib kelingan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv –metodik qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, 2009.
2. Baxriyev A.R. Musiqaning elementar nazariyasi. BuxDU 2011. -B6,7